

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION EXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: aliyevas.907@gmail.com

*Raimjonova Feruza Sobir qizi,
Hakimova Gulxumor Yorqinjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
21.88-gurux talabalari*

Annotatsiya: Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalaridan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda xorijiy tillarni bilish, ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati kattadir.

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, innovatsiya, ta'lim, ta'lim samaradorligi, axborot texnologiyalari, innovatsion faoliyat.

Mamlakatimizdagi ta'lim islohotlarining diqqat markazida ham ta'lim sifatini yaxshilash, kadrlarni zamon talablariga mos tarzda etishtirish, ularni iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ijtimoiy sektor, biznes, fan, xalqaro munosabatlar sohalarida raqobatbardosh yetuk mutaxassislar qilib tayyorlash masalalari turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 4.4—"Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bandida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" masalalarini hal qilish nazarda tutilgan.

Alohida olingan har qanday mamlakatda kadrlar tayyorlash sifati hamda iqtisodiyot rivoji o'rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud. Dunyo ko'rgan deyarli

barcha kishilik jamiyatlarida sifatli bilimga intilish bo'lgan, bugungi kunga kelib esa ilmiy-texnik rivojlanishdagi shiddat hamda jahondagi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari tabiiyki, ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi.

“Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur”.¹

Innovatsion jarayonning har bir bosqichida bu jarayon qatnashchilari quyidagi uchta yo'nalishda ish olib borishlari zarur: moddiy-texnik; tashkiliy; ijtimoiy-psixologik.

“Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini o'rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish zarurati shuning uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqdaki, an'anaviy o'qitish tizimlari o'z faolligini biroz yo'qotdi, quruq so'zlar yordamida o'qitish yaxshi natija bermay qoldi. Buning o'rniga “Axborotli o'qitish” ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'proq samara bermoqda”.²

Til vositalarini egallash mushohada va idrokdan boshlanib, tafakkur tomon, so'ngra amaliyotga yo'naltirilgan bilish jarayoni ekanligi ruhshunoslikda aniqlangan. Fikr yuritish chog'ida taqqoslash, tillararo va til ichki munosabatlarini aniqlash, shuningdek, til hodisasining ob'yektiv borliqqa bog'lanishini ochish kabilar tafakkur zimmasida turadi. Tafakkurning mavjudlik shakllaridan birlamchisi – amaliyot. SHunga ko'ra tilga oid bilimlarni o'zlashtirish tilni o'rganishga qo'yiladigan dastlabki qadamdir, asosiy masala nutq amaliyotini egallashga borib taqaladi. Til materiali intuitiv tarzda, ong ishtirokisiz, avtomatlashgan darajada nutqda qo'llana oladigan bo'lgandagina, tilni his etishga erishiladi, ya'ni nutq malakalari hosil bo'ladi.

Xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda shu kunga qadar bir necha metodlar qo'llanilganligi barchaga ma'lum. Ular xorijiy tillarni o'qitishda uzoq vaqt qo'llanilib kelingan GTM (Grammatik-tarjima metodi), BM (Bevosita metodlar), ALM (Audiolingval metod), AVM (Audiovizual metod) va bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishda keng qo'llanilayotgan KM (Kommunikativ metodikadir).

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida pedagog-tarbiyachining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish pedagogning innovatsion faoliyati tushunchasi paydo bo'ldi. Bu maktab ta'limida pedagog-o'qituvchilardan katta izlanishlarni va mahoratlarini muntazam rivojlantirib

¹ Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015 yil, 12-bet.

² M.Kamoldinov, B.Vaxobjonov. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. Savollar, javoblar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010 yil, 3-bet

borishlarini talab etadi. O'zbekiston Respublikasini Prezidenti mana shularni inobatga olib, - "Shuning uchun ham yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida, zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimizga sadoqatli insonlar etib voyaga etkazishda avvalo sizlarga tayanamiz"³ - deb pedagog-o'qituvchilarga katta ishonch bildiradilar.

Umuman olganda pedagogika shiddat bilan rivojlanmoqda ta'limga **innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish, chet tillarini o'rganish, chet tilida dars o'tish** kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab barcha ta'lim muassasalarida o'qitilishini tashkillash yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013-2014 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzliksiz o'rgatishning joriy etilishi buni isbotidir. Hozirgi kunda chet tilini, xususan ingliz tilini o'rganishning sababi, fan, madaniyat va iqtisodiyot rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili sifatida manashu innovatsion jarayonga e'tibor berilmoqda.

O'quv jarayonida nimani o'rgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarning turli, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi fikrlari izohlab kelinmoqda. Bu borada ikki muammo mavjud: birinchisi - nima o'rgatiladi, savoliga javob berishda, aksariyat olimlar ta'lim mazmuni :o'rgatiladi, degan aslida to'g'ri, ammo umumiy javobni qaytaradilar. "Nimani - ta'lim mazmunini" muammosining hal etilishi dolzarbligicha qolmoqda.

Chet til o'qitish mazmunining tarkibiy qismlarini tadqiq etish muhim nazariy izlanishlar sirasiga kiradi. O'qitish mazmuni qanday qismlardan tashkil topishi o'qitish maqsadlariga uzviy bog'liq holda hal etiladi. Maqsad odatda mazmunni belgilaydi, ya'ni mazmun ta'lim chog'ida o'zlashtiriladigan o'quv-metodik hodisa bo'lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsad sari olib boradi.

"Chet til xodisalari haqidagi koidalarning ona tili yoki ikkinchi tildagidan farqlari yana shundaki, ular o'quvchilar o'rganayotgan chet tilda emas, ona tilida beriladi, yod olinmaydi, daftarlarga yozilmaydi, alohida so'ralmaydi"⁴. Chet til o'qitishning amaliy maqsadi (nutq faoliyati turlarini egallash)da muayyan til materialini qo'llash hamda til birliklari nutq ko'nikma va malakalarining

³ Sh.M.Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent, "O'zbekiston", 2019. 356-bet.

⁴ Жамол Жалолов. Чет тил ўқитиш методикаси: Чет тиллар олий ўқув юртлири талабалари учун дарслик. Toshkent, 1996 yil, 12-б.

shakllanishida ishtirok etishida aniq chegaralar qo'yish kabi metodik jumboqlar yechiladi.

Ta'lim muassasalarda chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitilishi innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi bilan bog'liq. Bu ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga xorijiy ta'lim yutuqlarini singdirgan holda munosabatda bo'lishni shakllantirishga sabab bo'ladi.

“Chet til o'qitishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va yoyishdan ko'zlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga qaratiladi. Ilg'or ish tajribasi umumiy tarzda (chet til o'qitish tajribasi) yoki ayrim kichik soha (masalan, dars boshlanishida til muhitini yaratish, murakkab grammatik hodisani amaliy o'rgatish kabi)larni analiz-sintez metodi yordamida tadqiq qilishdan iborat”.⁵

Zamonaviylik va an'anaviylik pedagog-tarbiyachining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

Rossiyalik olim V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi, chunki bunday o'xshatish “innovatsion faoliyat” termini ma'nosini sayozlashtirib yuboradi. Umuman olganda har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma'lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko'rib chiqish zarur.

Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Qo'shiq va she'lar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, birikmalarni kuyga solib o'rgatish;

- Aqliy va jismoniy xarakterlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar;

- Multfilmlar va mult qahramonlar harakatlari bilan o'qitish;

- Rol ijro ettirish orqali bolalarda ingliz tiliga qiziqishlarini orttirish;

- Topishmoqlar va tez aytish kabi qiziqarli topshiriqlarni berish bilan;

- Amaliy mashg'ulotlar orqali masalan, mevalar, gullar va uy hayvonlarini ko'rsatish orqali kabi bir qator usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtayi nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv material (ya'ni til material) bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish

⁵ Jalolov Jamol Jalolovich. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent, 2012 yil, 20-bet.

hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

“Bu usullar o'quvchilarda amaliyotni konkret sub'ekt nuqtai nazardan va amaldagi an'anaga nisbatan jiddiy o'zgarishlarga olib keladigan faoliyatni innovatsion faoliyat deb hisoblashimiz mumkin”⁶.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ta'lim tizimida va ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullarini qo'llash orqali o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagog-o'qituvchilarni tashabbuslari va yangiliklari asosida aynan barcha ta'lim tizimida mazmun rivojlanish kuzatiladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, innovatsiya ma'lum bir faoliyat maydonidagi muammoni echish uchun yangicha yondashuv demakdir.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.
2. B.Ziyomhammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006 yil.
3. B.Xodjayev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent, 2015 y.
4. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2013 y.
5. Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 75-84.
6. Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.
7. Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>
8. Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 135-140.
9. Zaylobidinova R. G. et al. “AYOL” KONSEPTI BILAN BOG 'LIQ INGLIZ XALQI GEORTONIMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 518-523.

⁶ Б.Ходжаев. Инновацион таълим технологиялари фанидан маъруза матнлари. Тошкент, 2015 йил, 47-бет.